

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.Sharafiddinov

Farg'ona shahrini rivojlanish tarixidan (XIX asr oxiri – XX asr boshlari) 464

ADABIYOTSHUNOSLIK

N.M.Uluqov, N.Siddiqova

She'riy nutqda toponimlarning qo'llanishi va vazifalari..... 470

M.M.Rakhmatova

Amerika adabiyotida implikaturaning stilistik vositalar orqali ifodalanishi tahlili 475

Sh.B.Xo'jayeva

Alisher navoiyning "Nazm ul-javohir" asarida qofiya sathi va asar poetikasi o'rtasidagi bog'liqlik 479

R.R.Mamatov

Gerta Myuller asarlarining badiiy xususiyatlari 483

D.M.Uralova

Ulug'bek Hamdam hikoyalarida tasviriy ifoda va vositalarning o'rni..... 486

N.A.Saidova

K.Iyuisning "Narniya yilnomalari"da bolalar fentezi an'analari..... 489

K.U.Kubayev

Tarixiy haqiqat va badiiy talqin 493

U.Q.Muminova

"Mahbub ul-qulub" dagi turkiy so'zlarning hozirgi o'zbek adabiy tiliga munosabati..... 497

M.Q.Narziqulov

Hozirgi davr tojikzabon ijodkorlarning g'azal janrinirivojlanishidagi roli 502

M.Abdullayeva

Shoir Hayratiy "Sayohatnoma"sining lingvokulturologik tahlili va tadqiqi..... 512

N.Y.Xolmatova

Badiiy publisistikaning muhim xususiyatlari..... 515

Y.I.Nishanov

Masal (hikoya) janrining asli xususiyatlari 520

Sh.K.Xashimova

Temur Po'latov ijodi haqidagi ba'zi mulohazalar..... 523

Q.Sh.Kaxarov, S.Mustafoyeva

O'zbek va nemis tillarida sen/siz murojaat shakllari..... 527

B.I.Dexqonov

Binokorlik terminlarinig o'quv jarayonidagi kommunikativ omillari..... 531

N.A.Rasulova

Lingvistikada funksional tahlilni tavsiflash 535

M.A.Xusenov, Sh.A.Zoitova

Chet tili o'rganish jarayonida ko'p uchraydigag xatoliklar (koreys tili misolida) 540

G.Xonkeldiyeva

Rus tilida padej kategoriyasi tavsifi va undagi muammolar..... 543

X.Abdurahmonov

O'zbek tilshunosligi tarixida mavhum otlarning o'rganilishi va ularning ahamiyati..... 546

N.Y.Ortiqova

O'zbek tilida zidlanuvchi vositalar poetikasi..... 550

M.M.Abdulxayeva

Tilshunoslikda sinonimiyaning o'rganilishi va uning turlariga oid olimlarning qarashlari..... 556

N.T.Mutodov

O'zbek tiliga fors tilidan o'zlashgan so'zlar va grammatik kotegoriyalar 560

Q.Sh.Kaxarov, M.Y.Abdurazzakova

Shaxslararo muloqotda noverbal muloqotning ahamiyati 567

M.V.Nasridinov

Buyruq nutqiy aktining lingvopragmatik xususiyatlari..... 570

G.Yusupova

Nemis va o'zbek tillari turg'un birikmalarida genderning ifodalanishi 574

O'ZBEK TILIDA ZIDLANUVCHI VOSITALAR POETIKASI
ПОЭТИКА ПРОТИВОРЕЧАЩИХ СРЕДСТВ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ
POETICS OF CONTRADICTORY MEANS IN THE UZBEK LANGUAGE

Ortiqova Nargizaxon Yoqubjonovna¹

¹Ortiqova Nargizaxon Yoqubjonovna

– Farg'ona davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchi.

Annotatsiya

Leksopoetika bugungi kunda lingvopoetik tadqiqotlarning bir qismi sifatida alohida tadqiqni talab etadigan sohalardan biridir. Lingvopoetika sohasida keying yillarda olib borilayotgan tadqiqotlarda badiiy asarlarda qo'llanilgan leksik birliklarning badiiy – estetik vazifalari atroflicha tahlilga tortilgan. Ushbu maqola badiiy matndagi zidlanuvchi vositalar poetikasiga bag'ishlangan. So'z shakli va ma'naviy turlarining lingvopoetik tadqiqida zid ma'noli, ma'nodosh va shakldosh so'z va iboralarning poetik matnda badiiylik, obrazlilik va ohangdorlik kabi poetik vazifa bajarishini tahlilga tortish mumkin. Zid ma'noli so'zlar badiiy nutqning ifodaliligi, ekspressivligi, ta'sirchanligini ta'minlaydigan vositalardan biridir. Tadqiqot ob'ekti: A.Obidjonning she'riy asarlari matni. Tadqiqot predmeti: Badiiy asar matnidagi leksik birliklarning lingvopoetik xususiyatlari. Tadqiqot metodi: til satxlari birliklarining sistem-struktur tahlillari. Ushbu tadqiqotning ob'ekti bo'lgan A.Obidjon she'riyatida misolida muallifning zidlanuvchi vositalardan foydalanish mahorati tadqiq qilindi.

Аннотация

Лексологизация на сегодняшний день является одним из направлений, требующих специальных исследований в рамках лингвопоэтических исследований. В последние годы в области лингвопоэтики всесторонне анализируются художественно-эстетические функции лексических единиц, используемых в художественных произведениях. Данная статья посвящена поэтике конфликтных средств в художественном тексте. При лингвопоэтическом исследовании по отношению формы и значения типов слов можно анализировать выполнение поэтических задач, таких как художественность, образность и напевность противоположных по значению слов и словосочетаний, синонимов и сходных форм в поэтическом тексте. Слова с противоположным значением являются одним из средств, обеспечивающих выразительность, экспрессивность и действенность художественной речи. Объект исследования: текст поэтических произведений А. Абиджана. Предмет исследования: лингвопоэтические особенности лексических единиц в тексте художественного произведения. Метод исследования: системно-структурный анализ единиц языкового уровня. На примере поэзии А. Абиджана, являющейся объектом данного исследования, изучено умение автора использовать конфликтные средства.

Abstract

Today, lexicopoeitics is one of the areas that require special research in the framework of linguistic and poetic research. In recent years, in the field of linguopoetics, the artistic and aesthetic functions of lexical units used in works of art have been comprehensively analyzed. This article is devoted to the poetics of conflict means in a literary text. In linguo-poetic research, in relation to the form and meaning of word types, one can analyze the performance of poetic tasks, such as artistry, imagery and melodiousness of words and phrases that are opposite in meaning, synonyms and similar forms in a poetic text. Words with the opposite meaning are one of the means that provide expressiveness and effectiveness of artistic speech. Object of study: the text of poetic works by A. Abidjan. Subject of study: linguistic and poetic features of lexical units in the text of a work of art. Research method: system-structural analysis of language level units. On the example of the poetry of A. Abidjon, which is the object of this study, the author's ability to use conflict means is studied.

Kalit so'zlar: lingvopoetika, leksopoetika, leksikologiya, zidlanuvchi vositalar, antonym, antiteza, oksyumoron, kontekstual antonym, affiksial antonym.

Ключевые слова: лингвопоэтика, лексологизация, лексикология, противоречащие средства, антоним, антитеза, оксюморон, контекстуальный антоним, аффиксальный антоним.

Key words: linguopoetics, lexicopoeitics, lexicology, contradictory means, antonym, antithesis, oxymoron, contextual antonym, affixal antonym.

KIRISH

Maqolada bugungi o'zbek tilshunosligida lingvopoetika tushunchasi, lingvopoetik tahlil tamoyillari va poetik aktualashgan til birliklari sifatida leksik birliklar va ularning badiiylikni ta'minlash vazifalari haqida so'z boradi. Badiiy tasvirda she'rning mazmuni, ritmiga mos holda ishlatilgan leksopoetik vositalar kitobxon hissiyotiga kuchli ta'sir qiladi. So'zda konnotativ ma'no leksik vositalar bilan darajalanib borish xususiyatiga ega. Ushbu maqola badiiy matndagi zidlanuvchi vositalar poetikasiga bag'ishlangan. A.Obidjon she'riyatida misolida muallifning

ADABIYOTSHUNOSLIK

zidlanuvchi vositalardan foydalanish mahorati tadqiq qilindi. Tadqiqot ob'ekti: A.Obidjonning she'riy asarlari matni. Tadqiqot predmeti: Badiiy asar matnidagi leksik birliklarning lingvopoetik xususiyatlari. Tadqiqot metodi: til sathlari birliklarining sistem-struktur tahlillari.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqot ob'ekti: A.Obidjonning she'riy asarlari matni. Tadqiqot predmeti: Badiiy asar matnidagi leksik birliklarning lingvopoetik xususiyatlari. Tadqiqot metodi: til sathlari birliklarining sistem-struktur tahlillari. Adabiyotlar sifatida M.Yo'ldoshevning "Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari", A.Nurmonovning "Tilshunoslikning adabiyot bilan munosabati", A. Hojievning "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati", E.Qilichevning "O'zbek tilining praktik stilistikasi", A.Obidjonning "Saylanma:She'rlar" asarlari va boshqa lingvopoetik tahlil tamoyillari, leksik sath birliklarining lingvopoetik tahliliga doir turli monografiya, maqolalar, tilshunoslik lug'atlaridan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'zbek tilshunosligida keyingi yillarda lingvopoetika sohasida olib borilgan tadqiqotlarning har biri, aytish mumkinki, bu sohaning rivojiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Bunday izlanishlar natijasida bir qator salmoqli tadqiqotlar yuzaga keldi. Dastlabki ishlardan biri sifatida professor A.Nurmonovning kuzatishlarida lingvopoetikaga anchayin aniq ta'rif berilganini ko'rish mumkin. Olim lingvopoetika lingvistik poetikaning qisqargan shakli ekanini ta'kidlab, " badiiy asarlarda qo'llanilgan lisoniy birliklarning (fonetik, morfemik, leksik va boshqalar) badiiy-estetik vazifalarini, tilning konnotativ funksiyasini o'rganadi. Boshqacha aytganda, lingvopoetika tilshunoslikning badiiy nutqni o'rganuvchi bo'limidir" [1.164] deb ta'rif beradi.

Poetik leksikologiyada badiiy asar tilidagi sinonim, omonim iboralar yoki chegaralangan leksika (dialektizmlar, istorizmlar, arxaizmlar, ...) o'z va o'zlashgan so'zlar qatlamining ekspressivlik va obrazlilikka daxldorligi kabi jihatlari tahlil etiladi.

Leksikologiya (leksika va logiya) – tilshunoslikning til lug'at tarkibi, ya'ni bir muayyan tilning leksikasini o'rganuvchi bo'limi. Leksikologiya har bir so'zni yolg'iz holda emas, balki boshqa so'zlar bilan bog'liq holda o'rganadi. Leksikologiyada so'zlarning ma'no jihatidan o'zaro bog'langan, ya'ni monosemiya, polisemiya, sinonimiya, antonimiya, so'z ma'nolarining erkin yoki bog'liq holda bo'lishi kabi masalalar ham o'rganiladi. Leksikologiya lug'at tarkibining amalda ishlatilishi va taraqqiyoti qonuniyatlarini, so'zlarning uslubiy jihatdan tasnifiy tamoyillarini ishlab chiqadi. Shuningdek, so'zlashuv va adabiy tilda foydalanish me'yorlarini, professionalizm, dialektizm, arxaizm, neologizm, leksikalashgan so'z birikmalarini me'yorlashtirish kabi masalalarni tahlil etadi hamda bular haqida muayyan xulosalar chiqaradi." [2.249]

Poetik leksikologiyada badiiy asar tilidagi sinonim, omonim iboralar yoki chegaralangan leksika (dialektizmlar, istorizmlar, arxaizmlar...) o'z va o'zlashgan so'zlar qatlamining ishtiroki kabi masalalar tahlil etilarkan, uni antonimlar, sinonimlar, omonim va o'zakdosh so'zlar, neologizmlar, arxaizmlar, evfemizm va boshqa leksik qatlam birliklari lingvopoetikasi kabi bo'limlarga bo'lib tahlil va tadqiq qilinishi zarur deb hisoblaymiz.

Tilshunos olim G.O.Vinokur poetik tilning bir necha o'zaro farqlanuvchi jihatlari ko'rsatib, " badiiy til tushunchasi badiiy adabiyot tili tushunchasidan kengroqdir. Chunki bu, birinchidan, nafaqat badiiy adabiyot tili, qolaversa har qanday yozma nutqdir. Ikkinchidan esa, jamiyat madaniy hayotini asosi bo'lgan jamoaviy guruxlarning so'zlashuv tilidir. Badiiy adabiyot allaqachon o'zining tasvirlash va xarakterlar yaratish maqsadlari uchun tilning turli badiiy bo'lmagan vositalaridan keng foydalanmoqda" [3.90] deb ta'kidlaydi.

Badiiy uslub til materiallaridan foydalanish yo'sini bo'yicha boshqa uslublardan farqlanadi. Badiiy adabiyotni badiiy tilsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Badiiy tilning so'z, so'z formalari va grammatik qurilmalari fikr va tuyg'ularni ifodalash, badiiy obrazlar va ta'sirchan tasvirlar yaratish vositasidir. Qolaversa, yozuvchilar dialektizm, jargonizm, vulgarizm va boshqa shu kabi umumiy badiiy til doirasidan tashqaridagi vositalardan ham keng foydalanadilar. Demak, "poetik tilning boshqa turdagi til ko'rinishlaridan asosiy farqi o'z nomidan kelib chiqib unda estetik vazifa salmoqli o'rinni egallaydi". [4]

So'z shakliy va ma'noviy turlarining lingvopoetik tadqiqida zid ma'noli, ma'nodosh va shakldosh so'z va iboralarning poetik matnda badiiylik, obrazlilik va ohangdorlik kabi poetik vazifa bajarishini tahlilga tortish mumkin.

“Antonim (yunon. anti— qarshi, zid; onuma — nom). O‘zaro zid, qarama-qarshi ma’noli til birliklari: katta-kichik, baland-past, uzoq-yaqin, yaxshi-yomon (leksik antonimlar); -li, -siz: qumli-qumsiz (antonim affikslar); esiga kelmoq—yodidan ko‘tarilmoq, ko‘ngli ochiq — ko‘ngli qora (frazologik antonimlar) va b.” [5.15]

Zid ma’noli so‘zlar badiiy nutqning ifodaliligi, ekspressivligi, ta’sirchanligini ta’minlaydigan vositalardan biridir. Antonimlar “ ikki so‘z orasidagi tushunchalarning qarama-qarshiligi asosida yuzaga keladi. Shuning uchun ham ko‘p ma’noli so‘zlarda har bir semema o‘z antonimiga ega bo‘ladi”. [6.36] Sharq adabiyotida tildagi bu ifoda imkoniyatidan juda keng foydalanilgan. «Shoir uchun juda zarur bo‘lgan san’atlardan biri tazoddir. Bu san’at yana mutobaqa, tiboq, tatbiq, muttazod, ittazod va takofu deb ham ataladi. Bu san’atda, badeshunoslarning aytishicha, zid ma’noli so‘zlardan foydalaniladi.» [7.64] Yevropa filologiyasida esa bu san’at «antiteza» deb yuritiladi. “Antiteza (yunon. antisezis — qarama-qarshi qo‘yish). Qiyoslanuvchi fikr, tushuncha kabilarni qarama-qarshi qo‘yishdan iborat uslubiy qo‘llanish: Yaxshi topib gapirar, yomon qopib gapirar. Do‘st bo‘lish oson, uni saqlash qiyin.” [5.15]

Badiiy matnning lingvopoetik tahliliga bag‘ishlangan ishlarda zidlantirish, qarshilantirish atamalaridan foydalaniladi. Tilshunos olim M.Yo‘ldoshev antonimlarni “yonma-yon qo‘llash orqali tushunchalar, belgilar, holatlar, obrazlar zidlantiriladi. Odatda, lisoniy va kontekstual yoki nutqiy zid ma’noli so‘zlar farqlanadi. Ba’zan mahoratli yozuvchilar qahramonlar ruhiyatidagi kontrastlikni bo‘rttirib tasvirlash maqsadida muayyan bir kontekstual sinonimik qatoridagi bir necha so‘zni boshqa bir kontekstual sinonimik qatoridagi bir necha so‘zga birdaniga zidlantiradilar. Masalan: “U vaqtda o‘zi – kuldi, ochildi, quvondi, gerdayib, osmondan qarab qadam bosdi... Xadichaxon esa ezildi, kuydi, o‘rtandi, xo‘rlanib – xo‘rlanib, achchiq – achchiq yig‘ladi.” (Cho‘lpon) Kontekstual antonimlardan badiiy asarda tasvirning ta’sirchanligini oshirish maqsadida ishlatiladi”, deb ta’kidlaydi. Bundan tashqari olim antonimlar lingvopoetikasida ularning barqaror birikmalar bo‘lgan 1). Iboralarda; 2).Maqol va matallarda; 3).Hikmatli so‘zlarda kuzatilishini tahlil qilgan. [8.35]

“Antonimlar tasvirning aniq, ravshan chiqishida, tasvir etilayotgan holat, narsa, voqelikning farqli tomonlarini to‘la va obrazli aks ettirishda muhim ahamiyatga ega. Poeziya tilida bunday zid ma’noli so‘zlardan foydalanish kuchli xissiyotni ifodalashda juda qo‘l keladi.” [9.17]

Zidlash ma’nosining kontekstual-situativ harakterda bo‘lishi, ya’ni ma’lum bir nutq vaziyatida, ma’lum bir kontekstda zid ma’noda qo‘llanilishi va bu kabi kontekstual antonimlar ko‘pincha individual, biror muallif ijodiga hos bo‘lishi [10.50] ularning lingvopoetik tadqiqotlar uchun obyekt bo‘lishi mumkinligini tasdiqlaydi. Ular antonimlarning eng xarakterli ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, so‘zlanayotgan nutq holatidan kelib chiqqan holda, matnda qo‘llanish jarayonida, ya’ni kontekstda sodir bo‘ladi. Shuning uchun ham ko‘plab tadqiqotchilar u yoki bu ijodkor ijodi lingvopoetikasi tadqiqotlarida kontekstual antonimlar va antiteza san’atining qo‘llanilishi tahliliga e’tibor qaratishgan. [11.10]

Zidlash munosabatini ifodalashda kuchli ta’sirga ega bo‘lgan tasvir va hissiyotlar avjini namoyon qiluvchi tasviriy vosita oksyumorondan ham keng foydalaniladi. “Oksyumoron (yunon. – oksyumoron – o‘tkir ma’noli bema’nilik) - kishi yoki predmetning tabiati va mohiyatiga hos bo‘lmagan zid belgini unga nisbatan qo‘llash orqali antonimik munosabat hosil qilish”dir. [10.50]

Ushbu kichik tadqiqot asnosida Anvar Obidjon she’riyatida qo‘llangan zid ma’noli leksemalarning poetik tahlil etildi.

Shoir o‘zining “Ibodot” she’rida bir necha o‘rinda antiteza vositasi orqali turli tushuncha va fikrlarni qarshilantirib kuchli emoqional-ekspressivlikka erishgan:

“...Do‘stlarim davlatmand bo‘lsinlar doim,
Ro‘zg‘orin tebratsin dushmanlarim ham.
... Ko‘mmayin do‘stimni o‘rtanib, mahzun,
Ko‘msin meni do‘stlar, dushmanlarim ham.
...Yaxshilikdan, tangrim, in‘om et sharaf,
Yomonlikdan asra ko‘nglimni har dam.
Nomimni eslasin do‘stlarim yashnab,
Ta’nador bo‘lmasin dushmanlarim ham”. [12.28]

4 ta qatordan iborat 5 bandli she’rning har bir bandida “do‘st” va “dushman” zid ma’noli leksemalari takroran qarshilantirib keltirilgan. Shoir bu bilan she’rning poetik ta’sirchanligi va ohangdorligiga erishgan. She’rda bundan tashqari “yaxshilik” va “yomonlik” leksik antonimlarini;

ADABIYOTSHUNOSLIK

“ko'mmasin” va “ko'msin” kabi affiksial antonimlarini; “davlatmand bo'lish” va “ro'zg'or tebratish” kontekstual antonimlarini qarshilantirib qo'llash orqali kuchli ziddiyatli tasvir yaratilgan.

“...Har safar sen haqsan-u, har gal aybdor shoiring,

Doimo sen oppog'-u, men qoradurman, sevgilim”[12.61]satrlaridagi “haq” va “aybdor”, “oppog'” va “qora” antonimlari va “-u” –zidlov yuklamasini qo'llash orqali ikki shaxs o'rtasidagi munosabatlardagi farqni ko'rsatib, qarama-qarshi tasvir orqali kontrastlik hosil bo'lishiga erishgan.

Huddi shuningdek:

“Farishtalar osmonda yursin,

Gunohkorning joyi zaminda.

Ko'r-ko'rona sipolik qursin,

Zavq va hijron tursin yaqinda”.[12.61] Ushbu she'riy matnda o'zaro antonim bo'lmagan, ammo ayrim zid semalariga ko'ra matn ichida qarama-qarshi ma'no bildirayotgan “farishta – gunohkor”, “zavq – hijron” so'zlari muallifning o'ziga xos topilmalari – poetik, kontekstual antonimlar vazifasida namoyon bo'lmoqda.

“Jaydari teorema” she'rida:

“... Quvonchu g'am uyqash har toifada,

Odamzotning o'zi qorishma hilqat.

Jiddiy so'z portlar goh mutoyibada,

Hazilda jon saqlar goho haqiqat” [12.65] – “quvonchu g'am”- juft qo'llangan antonimlari va “jiddiy so'z- mutoyibada”, “hazilda – haqiqat” kabi oksyumoronlaridagi zid ma'nolar poetik vazifaga bo'ysundirilgan.

“...Vaqtim ziqdir maydalar bilan,

Olishmasman, solsa ham tahdid.

Kurashganga yarasha dushman

Bo'lsin dongdor, maydonda yaxlit.

Ishlar chala, hayot o'zi shu,

Dunyoda but narsa azal kam...

Asrasa bas yarimta do'stu

Choraktalik dushmanchadan ham” [12.67] – “ maydalar” otlashgan sifatiga “dongdor, maydonda yaxlit dushman” frazeologik birikmalasi; “chala” va “but” leksik antonimlari; “yarimta do'st” va “choraktalik dushmancha” frazeologik birliklari she'r kontekstida mahorat bilan zidlantirib kuchli falsafiy obrazlilik va tasvir yaratilgan.

“... Gar diling o't bo'lsa, borgum o't bilan o'ynashgali,

Gar diling muz bo'lsa, dilbar, o'ynagaymiz sirg'alib” [12.68] - satrlarida shoir “o't” (olov) va “muz” so'zlarini zidlantirish orqali va ular tabiatiga mos harakatlarni bildiruvchi turg'un birikma “o't bilan o'ynashish” va “ muzda sirg'anchiq uchib o'ynash” kabi frazeologik birikmalarni qarshilantirib qo'llash orqali betakror obrazli taassurot va lirik tasvir ichida yengil kulguga sabab bo'ladigan tasvirni hosil qilishga erishgan.

“Yer yuzin tor etsa kulfat, keng samoni eslagaylar,

Bermasa ziynat chag'ir tosh, qahraboni eslagaylar.

...Yaxshi do'stu yaxshi bekning izlayur illatin lodon,

Norasodan yetsa ozor, ul rasoni eslagaylar”[12.69] – To'rt satrning o'zida “yer - samo”, “tor - keng”, “chag'ir tosh - qahrabo”, “raso - noraso” kabi turli zid ma'noli so'z va iboralarni qarshilantirish orqali muallif rango-rang ma'nolar galereyasi – betakror badiiy tasvirni yaratgan.

Xuddi shuningdek, quyidagi to'rt satr – birgina banddagi “ chaqnadim – so'narman”, “keldim – jo'narman”, “qayoqdan- qayga”, “bezavol qo'ndim – azob birla qo'narman”, “gul –tikon” kabi zid ma'noli so'z va iboralar she'rdagi falsafiy fikrni poetik ifodalashda o'ziga xos vazifani qoyillatib bajarmoqda:

“Chaqnadim bir, qachon ammo so'narman bilmadim aslo,

Qayoqdan keldimu, qayga jo'narman, bilmadim aslo.

Bu shoxga bezavol qo'ndim, gahi gul, gah tikon bo'ldim,

U shoxga ne azob birla qo'narman, bilmadim aslo" [12.86]

Kishi yoki predmetning tabiati va mohiyatiga hos bo'lmagan zid belgini unga nisbatan qo'llash orqali zid, o'tkir ma'noli, "bema'ni" o'xshatish – oksyumorondan ham shoir o'rni bilan va juda keng foydalangan. Masalan:

"Po'rtana deb oshiq qalbini,

Buyuklarni o'xshatdim tog'ga.

Lola dedim yorning labini,

Va mengzatdim oyni o'chog'ga" [12.27] – "oy – o'choq" oksyumoroni;

"Unvonu martaba do'ngligi uzra

In qurgan chigirtka mendan yirikmi?

Shovqini azizmi nolamdan ko'ra,

Meni o'ldi degan o'zi tirikmi?" [12.97] – "chigirtka- mendan yirik", meni o'ldi degan – o'zi tirikmi" oksyumoronlari va "shovqin-nola" kontekstual antonimlari.

"Manguberdi falsafasi" she'rida:

"Tikandek ko'p olamda lashkar,

Biri jisman, biri ruhan zo'r.

G'ijingan yoq doim yurtparvar,

Tirjaygan yoq doim vatanxo'r.

Chechakdek ko'p olamda elat,

Biri yashnar, biri so'ladi.

Xalq bo'ladi "Biz" degan millat,

"Men" degan xalq millat bo'ladi" [12.103] Shoir bu she'rda "tikandek – chechakdek", "lashkar – elat", "jisman – ruhan", "g'ijingan – tirjaygan", "yurtparvar – vatanxo'r", "yashnar – so'lar", "xalq – millat", "men – biz" kontekstual antonim juftliklarini turli holatlarda, masalan: bir satrda, tagma-tag yoki satrlar aro qo'llab, o'zaro zidlov bog'lanishli jumlarlar tuzishi natijasida kuchli falsafiy fikr o'z ifodasini topgan. Lirik qahramonning ziddiyatli kechinmalari aks etgan bu she'rda shoir zid ma'noli so'zlar vositasida ana shu qarama-qarshi holat, ruhiyat kengliklarini ochib beradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, Anvar Obidjon she'riyatida qo'llangan zid ma'noli leksemalarning poetik tahlilida quyidagi e'tiborli jihatlar kuzatiladi:

1. Leksik antonimlar poetik nutqda quyidagi an'anaviy va o'ziga xos bir necha funksiyalarni bajaradi: 1). qarama-qarshi fikr, hissiyot, voqelikni badiiy ifodalaydi; 2). poetik nutqqa ta'sirchanlik bag'ishlaydi; 3). nutqqa ohangdorlik sifatini beradi.

2. Antiteza vositasini qo'llab qiyoslanuvchi fikr va tushunchani qarama-qarshi qo'yish orqali kuchli obrazlilik va ta'sirchan tasvir yaratiladi.

3. Juft qo'llangan antonimlar yoki kontekstual antonimlar nutqqa zidlilikdan ko'ra umumlashma ma'no bag'ishlaydi, ya'ni shu voqelik, ruhiyatni butun borlig'icha aks ettiradi.

4. Satrlararo antonimlik bir necha voqelik, holatni bir voqelik, holatga kontrast qo'yib, tasvir ta'sirchanligini oshiradi. Unda bir tomonning ikkinchi tomondan ustun, ortiq yoki kamligi qiyoslab baholanadi.

5. Poetik nutqda antonimlarning guruh - bir-birining izohi sifatida kelishi, qo'shimcha ma'no ifodalash bilan birga, nutq ohangi - tempiga ham ta'sir ko'rsatadi.

6. Antonimlardan hosil bo'luvchi oksyumoron kuchli ta'sirga ega tasvir va hissiyotlar avjini namoyon etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Nurmonov A. Tilshunoslikning adabiyot bilan munosabati/ Tanlangan asarlar. 3 jildli.-T.:Akademnashr, 2012. - 3-jild.- B.164. (Nurmonov A. Relationship of linguistics with literature/ Selected works. 3 volumes.-T.:Akademnashr, 2012. -Volume 3.- P.164.)

2. O'rinboyev B. Leksikologiya//O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.5-jild.Toshkent:O'zb-n milliy ens-yasi davlat ilmiy nashriyoti, 2004. B.249.(Orinboyev B. Lexicology//Uzbekistan national encyclopedia. Volume 5. Tashkent: State Scientific Publishing House of the National Institute of Uzbekistan, 2004. P.249.)

3. Винокур Г.О. Филологические исследования: лингвистика и поэтика.М.: Наука,1970.-С.90.(Vinokur G.O. Philological research: linguistics and poetics. M.: Nauka, 1970.-P.90.)

4. Руберт И.Б., Тимралиева Ю.Г. Поэтический язык как объект лингвистических исследований./Проблемы языкознания и теория коммуникации. (4. Rubert I.B., Timralieva Yu.G. Poetic language as an object of linguistic

ADABIYOTSHUNOSLIK

research./Problems of linguistics and communication theory.) <https://cyberleninka.ru/article/n/poeticheskiy-yazyk-kak-obekt-lingvisticheskikh-issledovaniy>

5. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. -T.: 2002. – B.15. (Hojiev A. Annotated Dictionary of Linguistic Terms. T.: 2002. P.15.)

6. Qilichev E. O'zbek tilining praktik stilistikasi.-Toshkent:O'qituvchi, 1985.-B.36. (Qilichev E. Practical stylistics of the Uzbek language.-Tashkent: Teacher, 1985.-B.36.)

7. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. –T:G'.G' ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1976. B.64.(Rustamov A. Navoi's artistic skill. - T: G'. G' ulam Literature and Art Publishing House, 1976. P.64.)

9. Yuldashev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. –Toshkent:Fan, 2006. B.35.(Yuldashev M. Basics of literary text and its linguopoetic analysis. -Tashkent: Science, 2006. P.35.)

10. Qurbonova M.O.Mustaqillik davri dostonlarining lingvopoetik tadqiqi./Monografiya.T., "Adabiyot uchqunlari"-2016. B.17.(Kurbanova M.O. Language-poetic study of epics of the era of independence./Monografiya.T., "Sparks of Literature"-2016. P.17.)

11. Shomaqsudov A., Rasulova I. O'zbek tili stilistikasi.-T.:1983. – B. 50. (Shomaksudov A., Rasulova I. Stylistics of the Uzbek language. T.: 1983.P.50.)

12. Keldiyorova G.S. O'zbek badiiy nutqida antiteza. Filol. fanlari nomz.... dis. avtoref. - T., 2000, B.10.(Keldiyorova G.S. Antithesis in Uzbek artistic speech. Philol. science nomz.... dis. autoref. - T., 2000, P.10.)

12.Obidjon A. Saylanma:she'rlar.- Toshkent: Akademnashr, 2017.- B.248.(Obidjon A. Selected Works: Poems.-Tashkent: Academy, 2017.- B.248.)